E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

QADIMLIKDAN QOLGAN ONA TILIM

Abdullayeva Durdona Erkin qizi

Termiz davlat universiteti

Madaniyat va san'at muassasalarini

tashkil etish va boshqarish yo'nalishi

3-kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ona tilimizning qadimlikdan boshlab shakllanganligi,ajdodlarimizning buyuk asarlarida qanday darajada o'rin olganligi, buyuk so'z ustalarining til haqidagi fikrlari , o'zbek tilining shakllanish bosqichlari hamda bugungi kundagi unga bo'lgan e'tibor haqida ma'lumotga ega bo'lishingiz mumkin.

Kalit so'zlar

Ona tili,Yusuf Xos Hojib,Xo'ja Ahmad Yassaviy,Ahmad Yugnakiy,Mir Alisher Navoiy,Abdurauf Fitrat,Mashrab,"Hifzi lison","Til bayrami",o'zbek tili,G'aybulla as-Salom,H.Nuriy.

Ona tili-muqaddas tushuncha.Har bir inson o'z ona tilini ulug'laydi, ko'kka ko'taradi.U orqali dunyoni taniydi,kashf etadi va shu bilan birgalikda jamiyatda o'z o'rnini topadi.

Darhaqiqat,til-insonning milliy va ma'naviy boyligi hisoblanadi.Til-ona allasi orqali kirib'insonning ruhiyatiga milliylikni singdiradi. Til-millatning ko'zgusi bo'lib unda tarix-o'tmish va kelajak jonlanadi.

O'zbek tili taraqqiyoti bugungi kunga qadar juda kata tarixiy yo'lni bosib o'tgan.Tilimizning ilk namunalari O'rxun –Enasoy bitiklarida uchraydi.Ulardagi yozuvlarda aks etgan tilimiz qadimiy turky til hisoblanadi.

XI-XII asrlarda mamlakatimiz hududida eski turkiy til shakllandi.Bu davrda yaratilgan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ot –at turk"asari eski turkiy tilda yozilgan betakror va nodir asarlardan hisoblanadi."Devonu lug'ot –at turk"asari nafaqat badiiy ,balki ilmiy,ijtimoiy ahamiyatga ega asardir.Xuddi shu davrda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig ", Xo'ja Ahmad Yassaviy "Hikmatlar" , Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarlari yuzaga keldiki,bu asarlar eski turkiy tilda yozilgan adabiyotning yuksak namunalaridir.

XIV-XV asrlar eski o'zbek adabiy tili rivojlanishi Lutfiyning benazir satrlari,Sakkokiyning go'zal g'azallari bilan bog'liq.O'sha davrda fors-tojik tilining boyligi va maftunkorligini madh etganlar Mir Alisher Navoiy turkiy g'azallari oldida bosh egdi .Alisher Navoiy tilimizning g'azal,juda boy til ekanini isbotlab berdi.Abdurauf Fitrat shunday e'tirof etadi: "Navoiy …turkiy tilning adabiy hamda boy til ekanini bildirmak uchun o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn " degan asarini yozib chiqardi" . Rostan ham bobomiz bu asarida turkiy tilning qanchalik boy til ekanligini , undagi ayrim so'z va iboralar boshqa tilda umuman uchramasligini isbotlab berdi.

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

Chunki toptim ul kalom ichra kamol,

Turk alfozi bila surdum maqol…

Turk nazmida chu men tortib qalam,

Ayladim ul mamlakatni yakqalam…

Turkiydagi betakror g'azal-u ruboiylari ,o'lmas "Xamsa" asari Navoiyni so'z mulkining sultoni degan yuksak e'tirofga sazovor qildi. Chunki hech bir shoir Alisher Navoiy kabi O'zbek tilining taraqqiyotiga , uning butun dunyoga tanitishdek buyuk zahmatni amalga oshira olmadi.

Navoiydan so'ng Zahiriddin Muhammad Bobur ,Boborahim Mashrab , Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat , Turdi Farog'iy ,Muqimiylar ham eski o'zbek tilining taraqqiyotiga beqiyos katta hissa qo'shdilar.Aynan yuqoridagi benazir shoirlarimizning turkiy g'azallari , ruboiylari orqali biz o'z tilimizni naqadar jozibador ekanini his qilamiz .

Bir millatni yo'q qilish uchun uning eng qadimdan palak otib kelgan an'ana va urf-odatlari ,beqiyos dini hamda buyuk kelajagini poymol qilishdan avval uning qadimdan rivojlanib kelgan tilini yo'q qilish kifoya… Tilni yo'q qilish bilan barobardir.Tilimizga e'tibor susayib borayotganligi haqida A.Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobidagi " Hifzi lison " maqolasida : " Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur. Hayhot! Biz turkistonliklar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursun kundan-kun unutmak va yo'qotmoqdadurmiz" , deya bong uradi. Jadidlar milliy tilni asramoq borasida ko'p ishlarni amalga oshirishga harakat qilishsa-da, bu sa'y – harakatlar besamar ketadi. Faqatgina 1989-yilda o'zbek ziyoli qatlami ona tilimizni yoqlab ovoz berganlari tufayli millatimiz ona tilini maqomini qayta tikladi.

1989-yil 21-oktabrda O'zbekiston Oliy Kengashining XII sessiyasida O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqidagi "gi Qonuni qabul qilindi.Bu qonun mustaqillik arafasida turgan davlatimiz hayotida unutilmas voqea bo'lib tarixga kirdi. 1990-yil 19-fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Kengashining 101-sonli qarori bilan ushbu Qonunni amalga oshirish bo'yicha Davlat dasturi tasdiqlandi.Shu boisdan Davlat Dasturida "Davlat tili haqida" gi Qonuni qabul etilgan kun 21-oktabrda har yili "Til bayrami " butun yurtimiz bo'ylab keng nishonlana boshlandi.

O'zbek tili o'zbek xalqining ma'naviy mulki bo'lib, uning ravnaqi, qo'llanilishi, va muhofazasini ta'minlashga oid barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining huquqiy doirasiga kirishi ijtimoiy mavqeyini kuchaytirdi , ona tilimizning buyukligini oshirdi. O'zbekiston Respublikasining barcha korxona ,muassasa, tashkilotlarda ish davlat tilida olib boriladi, bu esa xalqimiz uchun yengilliklar berdi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiyasining "Davlat suvereniteti " haqidagi 1-bobining 4=moddasida "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir "deb begilab qo'yildi.

O'zbek tilida to'g'ri ,ifodali ,so'zlash va yozish , ona tilimizning sofligi va boyligi to'g'risida tinmay g'amxo'rlik qilish ,uning iste'mol doirasini kengaytirish davlatimiz fuqarolarining burchi

sanaladi.Xususan , har bir yosh va o'quvchi o'z ona tilidagi so'z boyligini oshirish hamda til imkoniyatlaridan o'rinli foydalanishga doimo harakat qilishi lozim.

So'z- fikr qurolidir, kishi qanchalik ko'p so'z bilsa ,uning fikrlash doirasi , dunyoqarashi ham shunchalik keng bo'ladi. Zamonamiz olimi G'aybulla as-Salom shunday yozadi:"Ona tilida fikrlashga , toza gapirishga , nutqingizni har xil yot unsurlardan saqlashga harakat qiling. Qayerlarda va kim bo'lmasin, ona tili kamsitilishiga yo'l qo'ymasin. Til mavsumiy libos emaski, ob-havoning o'zgarishiga qarab almashtirilsa, Onaizor ,Vatan,millat har biri bittadan ,Ona tili ham bitta .Agar o'z xalqingiz orasida gungalak-soqov va yot bo'lishni istamasangiz , ona tilini puxta o'rganing .Boshingizga ko'taring.Kishi boshqa tilde bilimli bo'la oladi, ammo faqat o'z tilida bekam-u ko'st bo'lishi mumkin" .

Millatlarni millatlardan ajratib turuvchi asosiy belgilardan biri bu til ekan,har bir inson o'z ona tilini bilishi ,uni ulug'lashi va shu bilan birga boshqa millatlarning ona tillariga ham hurmat biilan qarashi lozim.Shundagina millatning qadri,nufuzi va obro'yi oshadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, tilni sevish ,uni ardoqlash,millatni sevish va uni qadrlash bilan teng hisoblanadi. Biz o'z ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uning nufuzini oshirishimiz ,go'zal va sofligini avlodlarga meros sifatida qoldirishimiz,dunyoga tanilishida o'z hissamizni qo'shishimiz kerak."Til yashasa- millat yashaydi" . Agar biz o'z tilimizning ko'rkamligi, boyligini dunyoga tarannum etsak,millatimizning yanada rivojlanishiga , dunyoning kuchli davlatlari qatoriga qo'shilishiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz. Men o'z fikrimni H.Nuriyning "Ona tilimsan " degan she'ridan parcha bilan tugatmoqchiman:

Ona tilim, omon bo'l mangu ,

Sen borsanki men ham o'lmayaman .

Tildan qolsam seni Oybekday ,

Men ko'zlarim bilan so'ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Alisher Navoiy. "Muhokamat ul-lug'atayn" asari.

2. A.Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq " asari.

3.Ulug'bek Hamdamov."Til- millatning ma'naviy pasporti".

4.Nusratullo Atoullo o'g'li Jumaxo'ja."Istiqlol va ona tilimiz".